



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI



Eko-madaniyat va  
ekologik savodxonlikni  
rivojlantirish

## Mavzu: Eko-madaniyat tushunchasi va uning ijtimoiy zarurati

“Tabiatni himoya qilish qonun emas, madaniyat masalasıdır”

- Unesco, 2015

# Kurs rejasi

1

## **Eko-madaniyat tushunchasi va uning ijtimoiy zarurati**

Ekologik madaniyatning asosiy tushunchalari, komponenetlari va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati

2

## **Eko-madaniyatni shakllantirishda ta'limning roli**

Ta'lif muassasalarida ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish metodik yondashuvlari

3

## **Ekologik muammolar va ularni hal etishda ekologik ongning o'rni**

Asosiy ekologik muammolar va ularni hal etishda ekologik tafakkurning ahamiyati

4

## **Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillari**

Barqaror rivojlanish maqsadlari va yashil iqtisodiyot prinsiplarini ta'limga integratsiyalash

# Eko-madaniyat nima?

**Eko-madaniyat** (ekologik madaniyat) – bu insonning tabiatga nisbatan ongli, axloqiy, mas'uliyatli munosabatini aks ettiruvchi madaniy, axloqiy, ma'nnaviy qadriyatlar majmuidir.

o'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi ta'rifiga ko'ra:

«*Eko-madaniyat* – bu insonning ekologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, tabiatga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologik xavfsizlikka amal qilishi va barqaror hayot tarzini yo'lga qo'yish qobiliyatidir»



# Eko-madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari

## Ekologik tafakkur

Atrof-muhit haqida ilmiy asoslangan fikr yuritish, tabiat hodisalarining sabab-oqibat aloqalarini anglash va tahlil qilish qobiliyati

## Ekologik axloq

Tabiatni qadrlash, unga ziyon yetkazmaslik tamoyillariga amal qilish, atrof-muhitga nisbatan axloqiy munosabatlarni shakllantirish

## Ekologik xulq-atvor

Amaliy hayotda tabiatga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish (masalan, chiqindilarni ajratish, resurslarni tejash)

## Barqaror qadriyatlar

Tejamkorlik, tabiiy resurslarni asrash, qayta ishlash, "yashil" turmush tarzini afzal ko'rish va kundalik hayotga tatbiq etish



# Eko-madaniyatning ijtimoiy zarurati

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot jarayonida inson va tabiat o'rtaсидаги muvozanat tobora izdan chiqmoqda:

- Ekologik muammolar sonining ortib borishi
- Iqlim o'zgarishlari va global isish
- Tabiiy resurslarning chegaraliligi
- Biologik xilma-xillikning kamayishi
- Yer degradatsiyasi va cho'llanish
- Suv resurslari tanqisligi

Bu holat insoniyatdan tub o'zgarishlarni talab qilmoqda – **ekologik muammolarga ongli, mas'uliyatli va barqaror yondashuv zarur.**

# Zamonaviy ekologik muammolar



## Atmosfera ifloslanishi

Sanoat chiqindilari, transport vositalari va yoqilg'i yoqilishi oqibatida havodagi zararli moddalar miqdorining ortishi, nafas olish kasalliklari, ekotizimlar izdan chiqishi



## Global isish

Yer yuzasida haroratning ortib borishi, muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, ekologik muvozanatning buzilishi



## Suv tanqisligi

Dunyoning ko'plab mintaqalarida ichimlik suvi zaxiralarining kamayishi, daryo va ko'llarning qurib borishi, suv resurslari uchun kurash



## Yer degradatsiyasi

Noto'g'ri foydalanish, o'rmonlarning kesilishi, eroziya va kimyoviy o'g'itlar ishlatalishi natijasida yer unumdorligining kamayishi, cho'llanish

# Ekologik muammolarning oqibatlari



Iqlim o'zgarishi va boshqa ekologik muammolar quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelmoqda:

- Qurg'oqchilik, suv toshqinlari, o'rmon yong'inlari kabi tabiiy ofatlar soni va kuchining ortishi
- Majburiy ekologik migratsiya va ijtimoiy ziddiyatlar
- Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid va qishloq xo'jaligi inqirozlari
- Sog'liq muammolari va kasalliklar tarqalishi
- Iqtisodiy zararlar va barqaror rivojlanishga to'sqinlik

Bu muammolarni hal etishda faqat texnik va huquqiy choralar yetarli emas – jamiyatda ekologik ong va eko-madaniyat shakllanishi zarur.

# Eko-madaniyatni shakllantirishda ta'limning roli



## Bilim berish

Tabiat qonuniyatlari, ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida ma'lumot berish



## Ongni oshirish

Insonning tabiat bilan munosabatini qayta ko'rib chiqish, ekologik mas'uliyat tushunchasini singdirish



## Ko'nikmalarni shakllantirish

Amaliy ekologik ko'nikmalar va barqaror hayot tarzi malakalarini rivojlantirish



## Xulq-atvorni o'zgartirish

Ekologik qadriyatlarni amaliyatga tatbiq etishga, mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarishga o'rgatish

Ta'lim jarayoni ekologik ongli, mas'uliyatli va atrof-muhitga nisbatan g'amxo'r fuqarolarni tarbiyalashning eng samarali vositasi hisoblanadi.



# Eko-madaniyatni shakllantirish metodik yondashuvlari

## Amaliy mashg'ulotlar

- Ochiq havoda tabiat bilan aloqada o'tkaziladigan darslar
- Ekologik eksperimentlar va kuzatishlar
- Daraxt ekish, gulzorlar yaratish loyihalari

## Jamoaviy loyihalar

- Mahalliy ekologik muammolarni o'rghanish
- Chiqindilarni tozalash aksiyalari
- Ekologik festivallar va ko'rgazmalar

## Kreativ yondashuvlar

- Ekologik mavzudagi hikoyalari, she'rlar yozish
- Chiqindilardan foydalanib san'at asarlari yaratish
- Ekologik muammolarni aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari

# Eko-madaniyatni ta'lim tizimiga integratsiyalash

## Boshlang'ich ta'lim

Tabiatga muhabbat, hayrat va hurmat hissini uyg'otish, asosiy ekologik tushunchalar bilan tanishtirish, oddiy amaliy ko'nikmalarni shakllantirish (chiqindilarni ajratish, suvni tejash)

## o'rta ta'lim

Ekologik tushunchalarni chuqurlashtirish, mahalliy va global ekologik muammolarni o'rganish, loyihalarda ishtirok etish, fanlararo bog'liqlikni ko'rsatish, Yashil maktab" va "Ekoklub" tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash

## Oliy ta'lim

Ekologik kompetensiyalarni ixtisoslik bilimlariga integratsiyalash, barqaror rivojlanish maqsadlarini tushunish, ekologik innovatsiyalar yaratish, tadqiqotlarda ishtirok etish

## Kattalar ta'limi

Zamonaviy ekologik tendensiyalar bilan tanishish, malaka oshirish kurslari, ota-onalarni ekologik tarbiyaga jalb qilish, jamiyatda ekologik madaniyatni targ'ib qilish

# Amaliy misol: Suv resurslarini asrash madaniyati

**Ta'lim orqali suv resurslaridan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish:**

- Suvni tejashning ahamiyatini tushuntirish orqali ekologik bilimni oshirish
- Suv ifloslanishining inson salomatligiga ta'sirini ko'rsatish
- Orol dengizi fojasi misolida ekologik muammolarning real ta'sirini o'rganish
- Suvni tejash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish (suv o'chirish, yomg'ir suvini toplash)
- Maktab hovlisida suv sarfini kuzatish loyihasini amalga oshirish
- Suv tanqisligi haqida video-rolliklar va plakatlar tayyorlash



Bolalikdan shakllangan ekologik tamoyillar katta hayotda ham atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatda bo'lishga zamin yaratadi.

# Jamoaviy ekologik loyihalar

Ekologik ta'lif dasturlari jamoa a'zolarini birgalikda ekologik muammolarni hal qilishga undaydi:

- **Jamoaviy daraxt ekish aksiyalari**

Maktab hovlisi va mahalliy hududlarda daraxt ekish,  
ko'kalamzorlashtirish ishlari, bog'lar barpo etish loyihalari

- **Chiqindilarni tozalash ishlari**

Suv havzalari, o'rmonlar va shahar hududlarini tozalash, chiqindilarni saralash, qayta ishlash amaliyotlarini joriy etish

- **Ekologik festivallar**

Turli xil mavzularda ekologik tadbirlar tashkil etish, ijodiy ko'rgazmalar,  
"Yashil haftalik" kabi targ'ibot aksiyalari o'tkazish

Bunday loyihalar orqali aholi o'rtasida ekologik birlikni mustahkamlash,  
jamoalarning o'z atrof-muhitini boshqarish qobiliyatini oshirish va ekologik  
fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish mumkin.



# Ekologik ong va mas'uliyat

Hozirgi kunda global ekologik inqiroz sharoitida insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – yosh avlodning ekologik ongini, qadriyatlarini va mas'uliyatli xatti-harakatlarini shakllantirishdir.

**Bugungi bola — ertangi qaror qabul qiluvchi yetuk fuqaro, siyosatchi, mutaxassis va jamiyat a'zosidir.**



# **Ekologik mas'uliyatni shakllantirish**

Ekologik mas'uliyat – bu insonning tabiat oldidagi burchini anglash, unga hurmat bilan yondashish va har bir qarorining ekologik oqibatlarini hisobga olgan holda yashashga bo'lgan intilishidir.

## **Ekologik qadriyatlar**

- Tabiatni qadrlash
- Tabiatni asrashga ichki ehtiyoj
- Ekologik ishonch va qarashlar

## **Ekologik xatti-harakatlar**

- Chiqindilarni to'g'ri ajratish
- Suvni tejamli ishlatalish
- Transportda ekologik variantlarni tanlash
- Ifloslanishga qarshi ongli harakatlar

Bu tushuncha insonning shaxsiy fazilatlari, axloqiy qarashlari, ijtimoiy ong darajasi va bilimga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati bilan uzviy bog'liq.

# **Yosh avlodda ekologik mas'uliyatni shakllantirish**

## **Maktabgacha ta'lif (3-7 yosh)**

Psixologlar ta'kidlaganidek, bu yosh oralig'i — qadriyatlar poydevorini qo'yish uchun muhim davr:

- Tabiat hodisalarini tushuntirish orqali hayrat, qiziqish va hurmat hissini uyg'otish
- Tabiyat bilan bevosita aloqa (yurish, kuzatish, gul va daraxt ekish) orqali hissiy bog'liqlikni kuchaytirish
- Zararsiz materiallardan foydalangan o'yinchoqlarni taklif qilish
- "Chiqindilarni ajratamiz", "Tabiat do'stimiz" kabi o'yinli mashg'ulotlar

## **Umumiyo'rta ta'lif (7-18 yosh)**

Fanga asoslangan, tizimli yondashuv orqali amalga oshiriladi:

- Ekologik tushunchalar (biosfera, global isish, chiqindilar, iqlim o'zgarishi) bilan tanishtirish
- o'z hududidagi ekologik muammolarni o'rganish, amaliy loyihalarda ishtirok etish
- "Yashil maktab", "Ekoklub", "Bir o'quvchi – bir daraxt" kabi tashabbuslarda qatnashish
- Ekologik bahs-munozaralar, ekskursiyalar, laboratoriya tajribalari orqali pozitsiyalarni mustahkamlash



# Fanlar integratsiyasi va oilaviy muhit

## Fanlararo integratsiya

Ekologik ta'lim barcha fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'tilganda ta'sirchanlik kuchayadi:

- Biologiyada: ekotizimlar, biologik xilma-xillik o‘rganish
  - Geografiyada: ekologik zonalar, iqlim o‘zgarishi
  - Adabiyotda: tabiatga doir asarlar tahlili
  - Texnologiyada: chiqindilardan kreativ mahsulot yaratish
  - Kimyoda: tabiiy moddalar, ifloslanish ta’siri

## **Oilaviy muhit va jamiyat**

Yosh avlodning ekologik qarashlari nafaqat mакtab, balki oilaviy muhit va jamiyatdagи xulqiy namunalar orqali ham shakllanadi:

- Ota-onalarning ekologik xulq-atvor namunasi ko'rsatishi
  - Oilaviy ekologik loyihalar va tadbirlar
  - Ota-onalarning maktab bilan hamkorligi
  - Jamoatchilik, OAV, blogerlar, ekologik tashkilotlar ta'siri

# Yashil iqtisodiyot nima?



BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ta’rifiga ko‘ra:

*“Yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligini va ijtimoiy adolatni oshirishga xizmat qiluvchi, atrof-muhitga xavf tug’dirmaydigan va ekologik cheklardan o’tmaydigan iqtisodiy tizimdir”*

Yashil iqtisodiyot tamoyillari:

- Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi manbalarni qo’llash
- Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash
- Tabiat resurslarini ehtiyojkorlik bilan boshqarish
- Ekologik jihatdan barqaror va ijtimoiy jihatdan adolatli iqtisodiy faoliyat

# Barqaror rivojlanish maqsadlari va ta'lif

Yashil iqtisodiyot bevosita Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM/SDG) bilan chambarchas bog'liq. Ta'lif tizimi orqali bu global maqsadlarni jamiyat ongiga chuqr singdirish va kelajak avlodni barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq harakat qilishga yo'naltirish mumkin.

## BRM 12 – Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish

Ta'lif muassasalarida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, saralash va qayta ishslash texnologiyalarini rivojlantirish prinsiplarini o'rganish. o'quvchilarga ekologik toza mahsulotlarni tanlash va aylana iqtisodiyot (circular economy) tushunchasini tatbiq etish ko'nikmalarini singdirish.

## BRM 13 – Iqlim o'zgarishiga qarshi choralar

Iqlim o'zgarishining sabablari va oqibatlari haqida chuqr bilim berish. Karbonat gazlar chiqindisini kamaytirish yo'llari, yashil energiya manbalarining afzalliklari va iqlimga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy darslar tashkil etish.

## BRM 4 – Sifatli ta'lif

Barcha uchun inklyuziv va adolatli sifatli ta'lifni ta'minlash, shuningdek, barqaror rivojlanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'quv dasturlariga to'liq integratsiya qilish. Global fuqarolik, madaniyatlararo tushunish va tabiatga hurmat tushunchasini shakllantirishga e'tibor qaratish.


# **Yashil iqtisodiyot va eko-madaniyat aloqasi**

## **Yashil iqtisodiyot**

Barqaror, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy tizim, texnologik va strukturaviy yechimlar

## **Eko-madaniyat**

Tabiatga nisbatan yangi dunyoqarash, ekologik qadriyatlar, mas'uliyatli xulq-atvor



## **Barqaror iste'mol**

Ongli iste'mol tanlovlari, resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, "yashil" mahsulotlarga talab

## **Ekologik ta'lim**

Barqaror rivojlanish prinsiplarini o'rgatish, ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish

Yashil iqtisodiyot nafaqat hukumatlar yoki biznes subyektlari darajasida, balki fuqarolik jamiyatining eko-madaniyat darajasi orqali ham rivojlanadi.

# Xulosa: Eko-madaniyat – kelajak kafolati

Eko-madaniyat nafaqat ekologik bilim, balki amaliy hayotiy zaruratdir:

- U shaxsiy hayotda, jamoatdagi faoliyatda, ta'limda va davlat siyosatida o'z ifodasini topadi
- Insonning ekologik tafakkurga asoslangan, mas'uliyatli qarorlari orqali ijtimoiy barqarorlik va tabiat muvozanati tiklanishi mumkin
- Har bir fuqaroning, ayniqsa yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirish — ekologik barqaror kelajakni ta'minlashda muhim omildir



«*Tabiatni himoya qilish qonun emas, madaniyat masalasidir*» (UNESCO) iborasi bizga tabiatni asrash qonunlar va majburiyatlardan ham ko'ra, har birimizning qalbimizda shakllangan madaniyat, qadriyat va e'tiqodlar orqali samaraliroq amalga oshishini eslatadi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI



Eko-madaniyat va  
ekologik savodxonlikni  
rivojlanitirish

# E'TIBORINGIZ UCHUN TASHAKKUR!



<https://linktr.ee/trmuz>



<https://trm.uz>



<https://www.facebook.com/trmuz>



[https://www.youtube.com/@trm\\_uz](https://www.youtube.com/@trm_uz)



[https://www.instagram.com/trm\\_uz/](https://www.instagram.com/trm_uz/)

